



M

# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogik, metodologik, innovatsion fan va ta'limga oid ilmiy jurnal

№2-3/2023

Litsenziya raqami: №095310



# **MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI**

*Elektron nashr. 168 sahifa, 26-dekabr, 2023-yil.*

## **TAHRIR HAY'ATI:**

Qirg'izboyev Abdug'affor Karimjonovich	tarix fanlari doktori, professor	Bosh muharrir
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna	pedagogika fanlari doktori(DSc), professor	Bosh muharrir o'rinosari
Hamdamova Maxzuna Tursunovna	pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	Bosh muharrir o'rinosari
Jamoldinova Odinaxon Rasulovna	pedagogika fanlari doktori, professor	A'zo
Djamilova Nargiza Nuriddinovna	pedagogika fanlari doktori (DSc), professor	A'zo
Babayeva Dono Razzakovna	pedagogika fanlari nomzodi, professor	A'zo
Sadikova Shoista Akbarovna	pedagogika fanlari nomzodi, professor	A'zo
Jumanova Fotima Uralovna	pedagogika fanlari nomzodi, dotsent	A'zo
Shirbacheyeva Gulchexra Shakirovna	pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	A'zo
Mirzayeva Farog'at Odiljonovna	pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	A'zo
Bafayev Muxiddin Muxammadovich	psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	A'zo
Ne'matov Shuhrat Ergashovich	pedagogika fanlari nomzodi	A'zo
Ochilov Sevin Rajaboyevich	Qashqadaryo viloyat Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi Pedagoglarning bilimi hamda ko'nikmalarini baholash sho'basi metodisti	A'zo
Yuldasheva Dilnoza Bekmuradovna	Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	A'zo
Nurkeldiyeva Dilbar Axmedovna	pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)	A'zo
Radjapova Zuxra Tirkashevna	pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	A'zo
Gaynazarova Gulbahor Abdullayevna	pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	A'zo

**Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ**

**Hamkorlarimiz:** Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti,  
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti



# MUNDARIJA

Kelajak – biz tayyorlagan tarbiyachilarlar qo'lida (tarbiya tamoyillari) .....	5
Hamdamova Mahzuna Tursunovna	
Xorijiy tillarni o'qitishda innovatsion texnologiyalarni qo'llash usullari.....	9
Xudoyberdiyeva Zumrat Xudayberdiyevna	
Исследовательская деятельность дошкольников и проведение опытов.....	13
Садикова Д. Х., Будаева О. Р.	
Maktabgacha katta yoshdagи bolalarni aqliy, axloqiy, estetik rivojlanishida qо'g'irchoq teatrini tashkil etishning ahamiyati.....	16
Nurmatova Iroda Toxtasinovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ertaklarning ahamiyati.....	19
Choriyeva Durdona Anvarovna, Ahmadova Sabohat Olimjon qizi	
Организация STEAM – лаборатории в дошкольных образовательных организациях.....	23
Намазбаева Лола Закировна, Латипова Луиза Салохидиновна	
Bo'lajak tarbiyachilarni tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlash metodikasining mazmuni.....	27
Namazbayeva Lola Zakirovna, Shermaxmatova Saodat Shovkat qizi	
Bo'lajak o'qituvchilarda kommunikativ boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish.....	33
Sharofiddinova Madinabonu	
Kredit-modul tizimida talabalarning mustaqil ta'lими tashkil etish mexanizmini takomillashtirish .....	36
Mamatkulova Kimyoxon Abdujalilovna, Qodirova Nazokat Husniddin qizi	
Modern and High-Quality Methods in Schools.....	40
Niyazmetova Zukhrajon Sobirovna	
Особенности психолого-педагогической подготовки профессиональных спортсменов (каратеистов) ...	44
Дурдона Туракулова	
Теоретические аспекты формирования социальной адаптации подростков из неполных семей .....	48
Умарова Малика Хисабидиновна, Туймуродова Зухра Рустамовна	
Talaba qizlarning ijtimoiy faolligini oshirishda ta'lim texnologiyalardan foydalanish .....	52
Sotiboldiyeva Shaxrizoda Shuxratbek qizi	
Jadidchilik harakatining vujudga kelishi .....	55
Mirzayeva Faroxat Odiljonovna	
Ta'lim sifatini oshirishga oid ayrim mulohazalar.....	59
Voxidova Norposhshaxon Xabibullayevna, Obidxonova Robiya Abdushukur qizi	
Bo'lajak o'qituvchilarda ijodkorlik faoliyatini shakllantirish va rivojlantirish yo'llari.....	62
Adizova Gulzoda Mehriddinovna, Yaxshilikova Hilola Ulig'bek qizi	
The Psychological Role of the Scientific Heritage Left by our Ancestors in the Formation of Moral and Educational Consciousness of the Youth .....	65
Ruziboyev Temur Bakhodirovich, Teshayev Sobit Sadikovich	
Boshlang'ich maktablarda o'quvchi va o'qituvchi munosabatlarda ikki tomonlama yondashuv .....	67
Xayitova Zilola Maxmudjonovna	
Hayot sifatini oshirish – davr talabi .....	70
Abdullahayeva Ranajon Matyoqubovna	
Klasterli yondoshuv asosida maktabgacha ta'lim va pedagogika kollejlari integratsiyasini rivojlantirish .....	73
Rizayeva Gulnora Botirovna	
О специфике изучения проблемы адаптации студентов в высшем учебном заведении .....	80
Tillashayxova Xosiyat Azamatovna	
Kasbiy kompetentlikning bugungi kun pedagogi imijida ahamiyati .....	84
Jo'rayerova Sohibjamol Norqobilovna	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ СОНТЕНТС

O'smirlik davrida axloqiy o'zini o'zi anglashning xususiyatlari.....	87
Mamanazarov Uchqun Burxon o'g'li	
Ekspериментальное изучение проявления невербального агрессивного поведения в системе "Руководитель - Подчиненный" .....	90
Назирова Лола Васижановна	
Shaxs o'zini o'zi baholashining salbiy va ijobiy jihatlari .....	94
Raxmonova Nigina Aminjonovna	
Ijtimoiy moslashuv va pedagogik tafakkurning rivojlanishida sifat jihatdan yangi bosqich .....	97
Ravshanova Nargiza Norboyevna, Avezberdiyeva N., Ne'matullayeva O., Abdullayeva N., Abduraxmonova S.	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pape-mash'e (G'ijimlangan qog'oz) usulida o'yinchoqlar va buyumlar yasash .....	100
Yaqubova Muhabbat Dilshodbekovna	
Tarbiyachi-pedagogning kompetentlik transformatsiyasi .....	105
Rasulxo'jayeva M. A., Urinova Z. O'.	
Uyushmagan yoshlarning huquqiy-psixologik muammolari .....	110
Kudratova Lola Ravshanovna	
Kopинг-поведение студентов: стратегии преодоления стресса в образовательной среде .....	113
Аскарова Гулрух Оринбосаровна	
Rivojlanish markazlarida 6-7 yoshli bolalarni mustaqil faoliyatini tashkil etish .....	117
Maxmutazimova Yulduz Raxmatovna, Amirova Munisa Yusuf qizi	
Проявление религиозной тематики в произведениях современных писателей Востока: Ф. Светлова "Отверзи мне двери" и Улугбека Хамдама "Бунт и смирение" .....	122
Чернова Татьяна Алексеевна	
Role of Innovation in Economic Development .....	125
Turdiyeva Nilufar Anvarovna	
Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishda kitob va kitobxonlikning o'rni .....	128
Xasanova Nilufar Botirboyevna	
Ijtimoiy hamkorlik asosida bo'lajak tarbiyachilarining kasbiy kompentensiyalarini rivojlantirish .....	133
Artikbayeva Aziza Abrorovna	
O'smirlar agressiyasining shaxslilik determinantlari .....	136
To'laganova Ziyoda	
Maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilarini mustaqil fikrleshga o'rgatishda nutq o'stirish metodikasidan foydalanish, metodik tavsiyalar berishni takomillashtirish .....	141
Musulmonova Shaxnoza To'lqinovna	
Zahiriddin Muhammad Bobur haqida ertak .....	144
Rizayeva Xusniya Ubayevna	
Mehrjon bayrami.....	148
Uralova Momogul Karimberdinovna	
Bo'lajak tarbiyachilarini ta'lim-tarbiyaviy jarayonlarga kasbiy tayyorlash.....	151
Sadikova Shoista Akbarovna	
Maktabgacha yoshdagи bolalarning bilingual rivojlanish .....	154
Sadikova Shoista Akbarovna, Tadjiyeva Muhabbat Xaydarovna, Nasreddinova Husnorabonu Jamoliddin qizi	
Vliyanie igrovoy deyatel'nosti v processe izucheniya anglijskogo jazyka v doo.....	157
Ergashewa Kamola Alisherovna	
Modeling Methods in the Process of Forming Mathematical and Logical Concepts in Preschool Children .....	161
Gaukhara Djanpeisova Erkinona, Mamatqulova Nilufar	



## ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR HAQIDA ERTAK

Rizayeva Xusniya Ubayevna

Nizomiy nomidagi TDPU Maktabgacha ta'lif pedagogika  
va psixologiya kafedra o'qituvchisi p.f.n. dotsent v.b.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda ertaksevarlikni oshirish, ertaklar orqali bolalarga yaxshilik to'g'risida tarbiya berish namunalari keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Maktabgacha ta'lif, tarbiya, halollik, to'g'riso'zlik, yaxshilik, yomonlik.

**Abstract:** This article presents the examples of children's education about kindness through fairy tales to increase the love of preschool children.

**Key words:** Pre-school education, education, honesty, correctness, good, bad.

**Аннотация:** В данной статье представлены примеры воспитания детей о добре посредством сказок для повышения любви дошкольников.

**Ключевые слова:** Дошкольное образование, воспитание, честность, честность, правильность, хорошо, плохо.

Bizga ma'lumki, ertaklar bolalar tarbiyasida muhim o'r'in tutadi. Chunki ular bolalarda yomonlik ustidan yaxshilik g'alaba qozonishini, har qanday qiyinchiliklardan keyin farovonlik kelishini, yaxshilik va yomonlikni farqlash, turli vaziyatlardan chiqish yo'llarini ertak qahramonlarning xatti-harakatlaridan o'rganadilar va ularga o'xhashhaq harakat qiladilar.

Maktabgacha ta'lif tashkilotlarida tarbiyachilar bolalarni Zahiriddin Mirzo Bobur bilan tanishtirishda, uning bolaligi haqidagi ma'lumotlar kamligi haqida o'zlarini fikrlarini bildirishadi. Bobur Mirzoning yozgan she'rlari, tuyuq va ruboylaridan hammasi ham bolalar yoshiga mos emas, hikoyalari ham barmoq bilan sanagudek. Shu sababli tarbiyachilar umumiylar guruh bilan ishlash jarayonlarida Bobur Mirzoning topqirrigi, jasurligi, ziyrakligi haqidagi ma'lumotlar bilan chegaralanadilar.

Biz Zahiriddin Muhammad Boburni o'zbek mumtoz adabiyotining yirik vakili, buyuk shoir, tarixchi, geograf, davlat arbobi, iste'dodli sarkarda, boburiylar sulolasining asoschisi hamda nihoyat, temuriy shahzoda sifatida taniymiz.

Shahzoda Boburning otasi – Umarshayx Mirzo Farg'ona viloyatining hokimi bo'lib, uning xonadoni poytaxt Andijonning arki ichida yashar edi. Boburning onasi Qutlug' Nigorxonim esa Mo'g'uliston xoni va Toshkent hokimi bo'lgan Yunusxonning qizi bo'lib, o'qimishli va oqilaligi bilan tanilgan edi. Shahzoda Boburning yoshligi Andijonda o'tgan. U yoshligidanoq maxsus tarbiyachilar, yirik foziul ulamolar ustozligida harbiy ta'lif, turli ilmlar, arab va fors tillarini o'rganadi, kitoblar o'qyidi, ilm-fanga, she'riyatga qiziqadi. Shahzoda Boburning ilm olishini uning buvisi Eson Davlatbegim nazorat qilib boradi.

Shahzoda Bobur yoshligidanoq to'g'ri so'zligi, atrofidagi insonlarga nisbatan mehribonligi, she'riyatga qiziqishi va gullar, jonivorlarnini yaxshi ko'rishi bilan tanilgan edi. Illo, shahzodaning bu fazilatlari u ulg'ayib, buyuk podsho va davlat arbobiga aylanganidan so'ng ham saqlanib qoldi.

Bobomiz Mirzo Boburning ezzulikka yo'naltirilgan tarbiysi, xalqparvarligi, do'stlikning qadriga yetishi haqida to'qima ertaklar yozish fikri tug'ildi. Bu ertaklar orqali bobomiz siyosida bolalarda yaxshilikka intilish, atrofga mehr bilan boqish, insonlar va jonivorlarga g'amxo'r bo'lish sifatlarini tarbiyalash bosh maqsad qilib olindi. Quyida ushbu ertaklarni havola qilamiz.

## YOMONLIKKA YAXSHILIK

Bor ekanu yo'q ekan, qadim emas Bobur Mirzo shoh bo'lgan bir davrda uni yomon ko'radigan insonlar bo'lgan ekan. Bobur Mirzo o'zi yosh bo'lsa-da ularning yomonliklarini ko'zlaridan, xatti-harakatlaridan bilan ekan. Bir kuni kech tushibdi, hamma uyquga ketibdi. Bobur Mirzo ham charchab uxbab qolibdi. Yovuz kishilar shu tunda uni o'ldirmoqchi ekanliklarini tushida ko'ribdi va uyg'onib ketibdi. Uyqusi qochib, kimga nima yomonlik qilganligini o'yabdi. U hayotida hech kimni dilini og'ritmagan ekan.



Kattalarni ham, o'z tengdoshlarini ham doimo hurmat qilib kelganligi uchun yovuz odamlar kimligini bilolmabdi. Uxlamasdan, shamni ham yoqmasdan ularni kutibdi. Yovuzlar shoh saroyiga kelib, Bobur Mirzo uxmlaydigan xonaga kirishibdi. Shunda Bobur Mirzo shamni yoqibdi. Qarshisida esa o'zining yaqin do'stalarini ko'ribdi. Shunda Bobur Mirzo do'stlariga hech narsa bilmaganday iltifot ko'rsatibdi. Ulardan tundagi tashriflarning ma'nosini so'rabdi. Do'stlari dovdirab qolishibdi va nima deyishlarini bilmay turishganda Boburning o'zi ularni xijolatdan chiqaribdi. Bilaman, bugungi darslarimiz anchagini qiyin edi. Sizlar meni tunda uxlamasligimni bilgansizlar, shu bois men bilan birga dars qilish uchun kelgansizlar debdi.





Do'stlari nima deyishni bilmay "Ha, ha shunday", – deb qo'ya qolishibdi. Bobur xotirjamlik bilan o'rnidan turibdi, kerakli kitoblarni olib, do'stlarini yoniga o'tiribdi. Va ularga bugungi qiyin darslarni o'zlashtirishda yordam beribdi. Lekin u do'stlari xotirjam emasliklarini sezib turardi. Shu sabab javondan hazrat Navoiyning g'azallari yozilgan kitobni olib, ularga do'stlik, yaxshilik, insonlarni ko'ra olmaslik natijalari haqidagi g'azallaridan o'qib, ma'nosini so'zlab beribdi. Do'stlari qilmoqchi bo'lgan ishlaridan juda uyalibdilar. Shunda Bobur Mirzo ko'rgan tushini do'stlariga aytib beribdi. Ulardan tushning ma'nosini so'raganda, do'stlari o'z niyatlarini aytib berishibdi. Senda hamma narsa saroy, boyliklar, obro'-e'tibor borligini biz ko'rolmasdik, senga hasad qilar edik. Shu sabab biz seni o'lдrimoqchi bo'ldik. Lekin sen bizni yana lol qoldirding. Niyatimiz yomonligini bilsangda, bizga yana yaxshilik qilib bilmaganlarimizni o'rgatding. Sendek do'sti bor inson xor bo'imasligini tushunib yetdik. Bobur Mirzo do'stlarini quchoqlab, ularga iltifotlar ko'rsatib uylariga kuzatib qo'yibdi.

#### OVDA

Kunlarning birida Bobur o'z tengdosh do'stlari bilan qirovul ovlash uchun ovga chiqishibdi. Ular qirovul qidirib ancha to'qayzor ichiga kirib ketishibdi. To'qaydag'i boshqa jonivorlarga ozor bermasliklarini do'stlariga dam-badam tayinlab boribdi. O'zi ham juda ehtiyojkorlik bilan yurar ekan, ovchilikning ham o'z qoidalari borligini do'stlariga tushuntirib beribdi.



Va nihoyat qirg'ovullar ko'rina boshlabdi. Do'stlari bilan ketma-ket ularga kamondan o'q uza boshlabdilar. Do'stlaridan Alibekning omadi chopmabdi. Bironta qirg'ovul urolmabdi. Uning xafa bo'lganini ko'rgan Mirzo Bobur keyingi ovlagan qirg'ovullarini do'sti Alibekka beribdi. Do'sti uning iltifotidan xijolat chekib qirg'ovullarni olmabdi. Shunda Bobur Mirzo do'stiga: "Men ham ularni senga bermoqchi emasdum, o'q otganimda ular sen tomonga uchib tushdilar. Men bildimki, ular sening nasibang ekan. Shuning uchun ularni senga berayapman" – debdi. Mirzo Bobur Alibekning oilasi ko'p bolalali oila bo'lib, ro'zg'orlarida har doim ham yegulik bo'imasligini bilar ekan.

Va do'stiga shu yo'l bilan hadya berishga qaror qilibdi. Alibek do'stining mehridan, uning tantiligidan xur-



sand bo'libdi. Do'stining yelkasini qattiq quchib unga rahmat aytibdi. Mirzo Bobur shunday inson bo'lgan ekanlarki, insonlarning ko'nglida nima kechayotganligini bilib olar ekanlar va insonlarga doimo yaxshilik qilishga oshiqar ekanlar.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Rizayeva X. U. (2022). Maktabgacha ta'lif tashkilotlarining kundalik ta'limi faoliyati davomida milliy qadriyat tushunchalarini bola ongiga singdirilish darajasi// The Theory of Recent Scientific Research in the Field of Pedagogy, 1(4), 129-134.
2. Rizayeva X. (2022). Maktabgacha yoshdag'i bolalarda milliy qadriyat tushunchalarini shakllantirishda oila va mahallaning roli// Science and Innovation, 1(B8), 2165-2168.
3. Rizaeva X. U., & Iskandarov, N. R. (2023). Maktabgacha ta'lif yoshidagi bolalarda mehnat tarbiyasini shakllantirish//Лучшие интеллектуальные исследования, 7(1), 89-98.
4. Gaynazarova G.A. Vol. 9 No. 1 (2023): "Germany" Modern Scientific Research: Achievements, Innovations and Development Prospects
5. Gaynazarova G.A. (2023) Importance of Pictures Based on Fairy Tales in Spiritual And Moral Education of Pre-school Children. Academia Science Repository, 4(6), 289–292. Retrieved from <https://academiascience.com/index.php/repo/article/view/776>



**Muharrir:** Qurbanov Sherzod Ismatillayevich

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2023. № 2-3**

---

© Materiallar ko‘chirib bosilganda “Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamatardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.



# MAKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

“Maktabgacha va maktab ta’limi”  
jurnali

26.06.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan №C-5669245  
reyestr raqami tartibi bo‘yicha  
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga  
ilmiy maqola, reklama materiallar yuborishingiz mumkin.  
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Тел.: 93 718 40 07

**Manzilimiz: Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**